

1. Lusardi A., Mitchell O. S. *The economic importance of financial literacy: Theory and evidence* // *American Economic Journal: Journal of Economic Literature*. – 2014. – Т. 52. – №. 1. – С. 5-44.

2. Обилов М.Р. Влияние уровня финансовой грамотности населения на развитие предпринимательства и способы его повышения / *Экономика и предпринимательство*. М.: 2025 г. № 5. 839-846 с.

3. *Measuring Financial Literacy: Core Questionnaire in Measuring Financial Literacy: Questionnaire and Guidance Notes for conducting an Internationally Comparable Survey of Financial literacy*, Paris, OECD, 2011, 31 p.

4. Судакова А.Е. Финансовая грамотность: теоретическое осмысление и практическое исследование // *Финансы и кредит*, 2017, т. 23, вып. 26, стр. 1563–1582.

5. Кузина О. Финансовая грамотность и финансовая компетентность: определение, методики измерения и результаты анализа в России // *Вопросы экономики*. 2015. № 8. С. 129-148.

6. Huston S.J. *Measuring Financial Literacy*. *The Journal of Consumer Affairs*, 2010, vol. 44, no. 2, pp. 296–316. 5. Улуғмуродов Д. Молиявий саводхонлик нима? - <http://old.xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item/10461-moliyavij-savodkhonlik-nima>.

JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADLARIDAN UNDIRILADIGAN SOLIQ TUSHUMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJ TAJRIBASINING O'RNI

G'afforov Kamronbek Shovkatovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy shaxslarning daromadlaridan undiriladigan soliq tushumlari samaradorligini oshirish masalalari xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda qo'llanilayotgan progressiv stavkalar, soliq imtiyozlari tizimi, deklaratsiya mexanizmlari hamda raqamlashtirish jarayonlarining soliq tushumlariga ta'siri ilmiy jihatdan yoritilib tegishli xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, soliq tushumlari samaradorligi, xorij tajribasi, soliq ma'muriyatchiligi, soliq siyosati, soliq bazasini kengaytirish, progressiv soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, soliq yukining optimallasuvi, fiskal barqarorlik, daromadlarni legallashtirish, raqamli soliq tizimi.

Har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishida soliq tizimi muhim richag bo'lib hisoblanadi. Boisi, davlat uchun budjet daromadlarining asosiy manbai soliqlar orqali shakllanadi. Davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri davlat ustuvorligini amalga

o'shishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Amaldagi soliq tizimidagi 9 ta soliq turi mavjud bo'lib, bulardan har birining ulushi davlat budjeti parametrlarida alohida aks ettiriladi. Misol uchun birgina jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga e'tibor beradigan bo'lsak, qanday tartibdagi aholi qatlami ushbu soliq to'lovchilari hisoblanadi degan savol tug'iladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'lovchilari deb quyidagilar e'tirof etilishi quyidagi ikki holatda amalga oshiriladi.¹³³

Bular:

1) O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar;

2) O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromad oluvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan jismoniy shaxslar hisoblanadi.¹³⁴

Soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tish uchun O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti bo'lishi va tegishli maqomi o'ziga nisbatan belgilangan soliq davri boshlanadigan yoki tugaydigan har qanday ketma-ketlikdagi 12 oylik davr davomida 183 kalendar kundan ko'proq muddat O'zbekiston Respublikasidagi hududida faoliyat olib borishi talab etiladi. Soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tgan har qanday jismoniy shaxsning soliq solish obyekti sifatida o'rtacha har oy mobaynida oladigan daromadlaridan davlat budjetiga undiriladi hamda soliq bazasi har bir soliq solish obyekti bo'yicha alohida aniqlanadi.¹³⁵

Hozirda mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 381-moddasi 1-qismiga muvofiq jismoniy shaxsning daromadlariga 12 foizlik soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 393-moddasi 1-qismiga asosan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslarning deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlariga quyidagilar kiradi:

1) mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

2) mulkiy daromadlar;

3) moddiy naf tarzidagi daromadlar;

4) boshqa daromadlar. Boshqa hollarda daromadlarni soliqqa tortish qonunchilikka xilof hisoblanadi.¹³⁶

1-jadval

Yaponiyada daromad solig'i stavkalari va ko'rsatkichlari.¹³⁷

Soliqlarga tortiladigan daromad miqdori(yenda)	Soliq stavkasi
1 950 000 gacha	5%
1950 000 – 3 300 000	10%
3 300 000 – 6 950 000	20%
6 950 000 – 9 000 000	23%
9 000 000 – 18 000 000	33%

¹³³ Abdullayev, A. (2021). *Soliq nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

¹³⁴ Ahmedov, B. (2020). Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini takomillashtirish yo'nalishlari. *Soliq va moliya*, 3(2), 45–52.

¹³⁵ Karimov, D. (2019). *Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish mexanizmlari*. Toshkent: Moliya.

¹³⁶ Rasulov, O. (2022). Soliq ma'murchiligini modernizatsiya qilishning xorij tajribasi. *Iqtisodiyot va innovatsiyalar*, 4(1), 78–85.

¹³⁷ Tursunov, Sh. (2018). *Soliq siyosatini takomillashtirish masalalari*. Toshkent: Fan.

18 000 000 – 40 000 000	40%
40 000 000 va undan ko'p	45%

Daromad solig'ini rivojlangan mamlakatlar misolida tahlil qiladigan bo'lsak Yaponiyada amaldagi soliq tizimida daromad solig'i progressiv ya'ni o'sib boruvchi shkalarda hisoblanadi. Jismoniy shaxsning daromadiga soliq solish progressivdir. Boshqacha qilib aytganda, daromad qancha ko'p bo'lsa, to'lanadigan soliq stavkasi shunchalik yuqori bo'ladi. 2025 yilda Yaponiyada jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari 5%-45% ni tashkil qiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasida soliq to'lovchilar bilan o'zaro ishonch va hamkorlik tamoyiliga asoslangan tizim samarali natija berayotganini ko'rish mumkin. Soliq organlari tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, onlayn monitoring tizimlari, shaffof hisob-kitob mexanizmlari va riskga asoslangan nazorat usullari soliq tushumlarining to'liq va o'z vaqtida undirilishini ta'minlaydi.

2-jadval

Angliyada daromad solig'i stavkalari va ko'rsatkichlari¹³⁸

Band	Soliq solinadigan daromad	Soliq stavkasi
Shaxsiy nafaqa	12 570 funt sterlinggacha	0%
Asosiy stavka	12 571 funt sterlingdan 50 270 funtgacha	20%
Yuqori stavka	50 271 funt sterlingdan 125 140 funtgacha	40%
Qo'shimcha stavka	£ 125,140 dan ortiq	45%

Angliyada soliq qonunchiligida muvofiq joriy etilgan soliqlar bir yil ya'ni joriy soliq yili 2024-yil 6-apreldan 2025-yil 5-aprelgacha amal qiladi. Keyingi yildan boshlab soliq bazasi qayta joriy qilinadi. Agar Angliyada 125,140 funt sterlingdan ortiq soliqqa tortiladigan daromad mavjud bo'lsa, fuqaroga shaxsiy nafaqa to'lanmaydi.

O'zbekiston Respublikasida amalda qo'llanilayotgan daromad solig'i batafsil keltrilib o'tilgan.

3-jadval

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 2025-yil¹³⁹

Soliqqa tortiladigan daromad	Soliq stavkasi (%)
Ish bilan ta'minlashdan olinadigan daromad, ijara daromadi, kapitaldan olinadigan daromad va boshqalar.	12
Rezidentlar uchun dividendlar va foizlar	5

O'zbekiston sharoitida ham jismoniy shaxslar daromad solig'ini takomillashtirishda xorij tajribasining ilg'or jihatlarini moslashtirish maqsadga

¹³⁸ Islomov, R. (2021). Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tizimini rivojlantirish. *Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, 2(3), 60–67.

¹³⁹ Mamatov, J. (2020). Jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalarini optimallashtirish muammolari. *Moliya va bank ishi*, 5(1), 33–40.

muvofigdir. Xususan, raqamli soliq tizimini rivojlantirish, daromadlarni to'liq deklaratsiya qilish mexanizmini bosqichma-bosqich joriy etish, soliq madaniyatini oshirish va nazorat tizimini modernizatsiya qilish soliq tushumlari samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

4-jadval

Norezident jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 2025-yil¹⁴⁰

Soliq solinadigan daromad	Soliq stavkasi (%)
Dividendlar va foizlar	10
Transport (yuk tashish) xizmatlari	6
Boshqa daromadlar (shu jumladan royalti, ish bilan bog'liq daromadlar va boshqalar)	12

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlar asosida daromad solig'ining budjetdagi ulushi ahali daromadlariga ta'siri hamda xorijiy mamlakatlarning soliq tizimi bilan solishtirilib o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, rivojlangan davlatlarda progressiv soliq stavkalari, keng qamrovli deklaratsiya tizimi hamda raqamlashtirilgan soliq ma'murchiligi mexanizmlari soliq bazasining kengayishiga va budjet tushumlarining barqaror o'sishiga xizmat qilmoqda.¹⁴¹ O'zbekiston Respublikasida amaldagi proporsional stavka tizimi soddaligi bilan ajralib tursa-da, daromadlar tafovutining ortib borishi sharoitida soliq yukining ijtimoiy adolat tamoyillariga mos taqsimlanishini ta'minlash zarurati mavjud. Xorijiy tajriba tahlili milliy soliq tizimini modernizatsiya qilishda progressiv elementlarni bosqichma-bosqich joriy etish, deklaratsiya institutini kengaytirish va soliq ma'murchiligini to'liq raqamlashtirish zarurligini asoslab beradi. Shunday ekan, biz ham ushbu davlatlar qatoridan joy olishimiz uchun

1) Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tizimiga daromadlar darajasini inobatga olgan holda progressiv stavkalar elementlarini bosqichma-bosqich joriy etish

2) Soliq deklaratsiyasi institutini takomillashtirib, mustaqil daromad manbalariga ega shaxslar uchun majburiy deklaratsiya qamrovini kengaytirish

3) Soliq ma'murchiligini to'liq raqamlashtirish, ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish va real vaqt rejimida monitoring tizimlarini joriy etish.¹⁴²

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan undiriladigan soliq tushumlari davlat budjeti daromadlarining muhim manbalaridan biri bo'lib, mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda alohida o'rin tutadi. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jismoniy shaxslar daromad solig'i samaradorligini oshirish nafaqat fiskal barqarorlikni mustahkamlash, balki ijtimoiy adolat tamoyillarini ta'minlash, daromadlar tengsizligini kamaytirish va iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga ham xizmat qiladi.

¹⁴⁰ Rahimov, Q. (2019). *Xorijiy mamlakatlarda soliq tizimi tajribasi*. Toshkent: Akadernashr.

¹⁴¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. (2023). *Soliq siyosatini rivojlantirish bo'yicha yillik hisobot*. Toshkent: DSQ nashri.

¹⁴² O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2022). *Davlat budjeti va soliq tushumlari tahlili*. Toshkent: Rasmiy nashr.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq tushumlari samaradorligini oshirishda bir nechta asosiy omillar muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, progressiv soliq stavkalarini joriy etish va daromadlarni differensial yondashuv asosida soliqqa tortish ijtimoiy adolatni ta'minlash bilan birga budjet tushumlarini barqarorlashtiradi. Ikkinchidan, soliq ma'murchiligini soddalashtirish, deklaratsiya topshirish jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamli platformalarni keng joriy etish soliq intizomini oshiradi hamda yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytiradi.

Shuningdek, xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, soliq imtiyozlari va chegirmalar tizimini maqbullashtirish ham samaradorlikni oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun maqsadli imtiyozlar saqlanib qolgan holda, asossiz preferensiyalarni qisqartirish budjet daromadlarini oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, jismoniy shaxslarning daromadlaridan undiriladigan soliq tushumlari samaradorligini oshirish kompleks yondashuvni talab etadi. Xorij tajribasini chuqur o'rganish va milliy iqtisodiyot xususiyatlariga moslashtirish orqali fiskal barqarorlikni mustahkamlash, budjet daromadlarini ko'paytirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Abdullayev, A. (2021). Soliq nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.*
2. *Ahmedov, B. (2020). Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini takomillashtirish yo'nalishlari. Soliq va moliya, 3(2), 45–52.*
3. *Karimov, D. (2019). Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish mexanizmlari. Toshkent: Moliya.*
4. *Rasulov, O. (2022). Soliq ma'murchiligini modernizatsiya qilishning xorij tajribasi. Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 4(1), 78–85.*
5. *Tursunov, Sh. (2018). Soliq siyosatini takomillashtirish masalalari. Toshkent: Fan.*
6. *Islomov, R. (2021). Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tizimini rivojlantirish. Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 2(3), 60–67.*
7. *Mamatov, J. (2020). Jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalarini optimallashtirish muammolari. Moliya va bank ishi, 5(1), 33–40.*
8. *Rahimov, Q. (2019). Xorijiy mamlakatlarda soliq tizimi tajribasi. Toshkent: Akadernashr.*
9. *O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. (2023). Soliq siyosatini rivojlantirish bo'yicha yillik hisobot. Toshkent: DSQ nashri.*
10. *O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2022). Davlat budjeti va soliq tushumlari tahlili. Toshkent: Rasmiy nashr.*